

**HOZIRGI VA YANGIDAN DUZILYOTGAN ASOSIY QANUNIMIZ BOLGAN
KONSTITUTSIYAMIZNING OZGARISH KIRITILISHI**

Atabayeva Ayna Erkabay qizi

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
1-J kurs talabasi*

Kakisheva Gulnur Annadurdiyewna

*Ajiniyoz nomidagi NDPIning Turkiy tillar fakulteti
Turkman tili va adabiyoti yo'nalishining 1-D guruh talabasi*

Iqlasbaeva Rawshan Xojabay qizi

*Ajiniyoz nomidagi NDPIning Turkiy tillar fakulteti
Qaraqolpoq tili va adabiyoti yo'nalishining 1-A guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ozbekiston Respublikasining asosiy qanuni bolgan Konstitutsiyanin qabul qilinishi va 2023-yili qaytadan ya'niy tubdan o'zgarishlar kiritilgan yangi loyihasi haqida*

Kalit so'zlar: *Ozbekiston Respublikasi, Konstitutsiya, qanun, huquqiy hujjat, huquq, erkinlik, majburiyot, talim, diniy, shaxsiy, social, ekonomikaliq, saylov, saylanish, referendum, qanun ustiniigi, puqoralar huquqi, yashash huquqi, atrof-muhit, askeriy, alternativ, ekonomikaliq birlashma, oila, ommoviy axbarot vositasi, Qaraqalpogiston Respublikasi, prezident, oliy majlis, senat, deputat, Ministrlar kabineti, prokuratura, finans, pul, kredit, qavsizlik.*

Inson va fuqoralar davlat qarmogida yashar ekan albatta davlat kafolatlari bilan kelishim asosida hayot keshiradi. Qanuniy turda kelishim yaniy Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida aytar ekanmiz, ottiz yil ishida oz kuchin saqlab keldi, bugunga kelib 2023-yilda yangi loyiha ishlab chiqildi. Asosiy qanunimiz Konstitutsiya 1990-yili 24-mart kuni bolib otgan 12-chaqiriq birinchi sessiya Konstitutsiyanin ishlab chiqish masalasi korib chiqildi. Oliy Kengashning 1990-yili 20-iyunda bolin otgan ikkinchi sessiyada respublika prezidenti Islam Karimov tamonidan Konstitutsiya komissiyasi duzildi.

Umum xalq talqilash davomida bildirilgan kop sonli taklivlarni hisobga olgan holda komissiya tarapinan tayyorlangan Konstitutsiya loyihasi Oliy kengash talqilashiga qoyildi. 1992-yili 8-dekabr 12-shaqirq 11-sessiyasinda bul loyiha maquillandi va hozirgi kunga qadar oz kuchin yoqatmadi. Konstitutsiya 6 bolim 26 bob 128 moddadan iborat. Konstitutsiyada Ozbekiston Respublikasi davlat suvereniteti, davlat tili, davlat belgilari: bayroq, gerb, gimn, paytoxti, referendum, konstitutsiya va qanun ustiniigi, tashqi siyosat, yashash huquqi, siyosiy, diniy, mulkdorlik, social-ekonomikaliq huquqlar, Ozbekiston Respublikasi puqoralari tashqi davlatda bolsa da huquqlarin saqlab qolishin kafolatlaydi. Qanunda inson huquqlari, erkinliklarlarining davlat

tamonidan kafolatlanishi va davlat oldidagi burchlarin bajarishi majburiy ekanligi korsatilgan. Yangidan tuzilgan konstitutsiyaliq loyihada koplak ozgarishlar kiritilgan. Eng kozga tashlanadigani 4-bob "Tashqi siyosat" bu bobda faqar bitta 17-modda bor edi, yangisinda 17-18-moddalar keltirilgan. Qonun loyihasi 6 bo'lim, 155 moddadan iborat.

Konstitutsiyaviy Qonun referendum yakunlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Konstitutsiyaviy Qonun kuchga kirguniga qadar O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ushbu Konstitutsiyaviy Qonun tahriridagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo'lmagan qismida qo'llanadi.

Konstitutsiyaviy Qonun tahriridagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari tegishli qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishidan yoki mavjudligidan qat'i nazar, Konstitutsiyaviy Qonun kuchga kirgan paytdan e'tiboran to'g'ridan to'g'ri amal qiladi.

Avvalroq, Oliy Majlis Senati 14 mart kuni bo'lib o'tgan majlisda yangi tahrirdagi Konstitutsiya to'g'risidagi qonun loyihasi bo'yicha referendum o'tkazish to'g'risidagi qarorni ma'qullagandi.

83 senatordan 80 nafari qarorni qo'llab-quvvatladi, 1 nafari betaraf qoldi, 2 nafari esa ovoz bermadi. 30 aprel kuni umumxalq referendumi o'tkazildi. Saylov byulletenida «Siz «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunini qabul qilasizmi?» degan savol bo'ladi.

41-moddaning amaldagi tahriri bunday: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir". Bu moddani quyidagicha yangi tahrirga o'tkazish taklif etilmoqda:

Har kim ta'lim olish huquqiga ega.

Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga ko'maklashadi.

Davlat har bir bolaning umumiy o'rta ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirishi uchun majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o'tishga bo'lgan huquqini kafolatlaydi.

Bepul umumiy o'rta ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir.

Maktab ishlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat nazoratida bo'ladi.

Ta'lim bo'yicha alohida ehtiyojlarga va individual imkoniyatlarga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va tarbiya tashkil etiladi.

Davlat iste'dodli yoshlarning moddiy ahvolidan qat'i nazar, ta'limni davom ettirishini kafolatlaydi.

Davlatga qarashli, xususiy va boshqa shakldagi ta'lim muassasalari hamda tashkilotlarini rivojlantirish uchun davlat teng shart-sharoitlar yaratadi.

Pedagog xodimlarning maqomini har jihatdan mustahkamlash jamiyat va davlatning maqsadi hamda mas'uliyatli vazifasidir.

Pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatiga aralashishga, shuningdek ularning xizmat majburiyatlarini bajarishiga monelik qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

yangi tahriri bilan quyidagilar taklif etilyapti:

Qonunchilik palatasi qabul qilgan qonunlarni Senatga yuborishning cheklangan muddatini (qonun qabul qilingan kundan boshlab) amaldagi 10 kundan 20 kunga uzaytirish;

Senat ma‘qullagan qonunlarni imzolash va e‘lon qilish uchun prezidentga yuborishning cheklangan muddatini (qonun ma‘qullangan kundan boshlab) 10 kundan 20 kunga uzaytirish;

Prezident Senatdan kelib tushgan qonunni imzolashi va e‘lon qilishining cheklangan muddatini amaldagi 20 kundan 2 oyga uzaytirish.

90-moddada prezidentning vakolat muddatini 5 yildan 7 yilga uzaytirish taklif etilmoqda.

Xulosa joyida shuni aytish joizki:yoshlar uchun judayam qulayliklar yani talim boshqishlarini ozi hoqlagan turda tanlashi haqida keltirilgan.Konstitutsiyaga quyidagi mazmundagi 41-modda qo‘shilmoqda:

Har kim davlat ta‘lim tashkilotlarida tanlov asosida bepul oliy ma‘lumot olishga haqli.Oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari qonunda belgilangan doirada o‘zini o‘zi boshqarish, akademik erkinlik, shuningdek tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega.Davlat ilm-fanni rivojlantirishga, jahon ilmiy hamjamiyati bilan ilmiy aloqalar o‘rnatishga ko‘maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARI:

- 1."Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiya" Toshkent 2014
- 2."Konstitutsiyaliq huquq tiykarlari" "SHARQ" TASHKENT-2014
- 3.<https://kun.uz/uz/news/2022/06/25/constitution>